

## KORONAVIRUS INFEKTSIYASINI O'TKAZGAN BEMORLARDA GEMOSTAZ TIZIMI KO'RSATCHILARI VA YALLIG'LANISH MARKERLARINI DINAMIKASINI BAHOLASH.

*Jurayeva S.X.*

*Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi  
Samarqand filiali laborant shifokori*

*Yakubova D.M.*

*SamDTU klinik laborator diagnostika va DKTF  
klinik laborator diagnostikasi kursi bilan kafedrası assistenti*

*Nabiyeva F.S.*

*SamDTU klinik laborator diagnostika va DKTF  
klinik laborator diagnostikasi kursi bilan kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) butun dunyo bo'ylab tez tarqalgan, og'ir asoratlilar bilan kechadigan infeksiyon kasallikdir. COVID-19 da og'ir koagulopatiya, arterial va venoz trombozlar o'limning asosiy sababchilari bo'lib chiqdi. Bundan tashqari bemorlarda o'tkir faza oqsillari ko'rsatkichlari ham me'yoriy ko'rsatkichlardan bir necha marotaba ko'payganligi qayd etilgan. Koronavirus infeksiyasiga javoban yaqqol namoyon bo'lgan yallig'lanish reaksiyasi qon tomir devoriga zarar yetkazishi va gemostaz tizimining faollashishiga olib kelishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *koronavirus, COVID-19, gemostaz, D- dimer, C-reaktiv oqsil, ferritin.*

**Tadqiqot maqsadi:** *Tadqiqotni o'tkazishdan maqsad koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda gemostaz tizimi va o'tkir faza oqsillari ko'rsatkichlari dinamikasini baholash.*

**Materiallar va tadqiqot usullari:** *Tadqiqot Samarqand viloyat endokrinologiya markazi klinik shifoxonasida o'tkazildi. Tadqiqotda koronavirus infeksiyasi tashxisi qo'yilgan 51 nafar bemor ishtirok etdi. Shifoxonadan chiqqanda va 4 oy o'tgach, barcha bemorlarda Kvik bo'yicha protrombin vaqti, QFTV, fibrinogen, D- dimer, ferritin va C- reaktiv oqsil darajalari aniqlandi.*

**Tadqiqot natijalari.** *Shifoxonada davolanishdan so'ng bemorlarda qon ivish tizimi ko'rsatkichlarining quyidagi qiymatlari kuzatildi. Kvik bo'yicha protrombin vaqti 88% (84- 91), QFTV 31,2 s (29-32,7), fibrinogen 3,5 g/l (3,0- 3,9), D-dimer 951 ngFEU/ml (503-2183). Bemorlarda qonda D-dimer darajasi me'yoriy ko'rsatkichlardan 1,6 baravar ko'proq ekanligi, boshqa ko'rsatkichlar esa me'yoriy ko'rsatkichlarga mos kelishi aniqlandi. 4 oydan keyin bemorlarda qayta tahlil*

o'tkazilganda Kvik bo'yicha protrombin vaqti 1,25 martaga oshganligi- 109% (101-123), QFTV 1,2 martaga qisqarganligi- 25,9 s (24,4-27,3), shuningdek D- dimer darajasi 2,5 martaga kamayganligi- 340 ngFEU/ml (220-520) aniqlandi. Ushbu o'zgarishlar tromb hosil bo'lishining oldini olish uchun buyurilgan antikoagulyant dorilarni bekor qilish hisobiga tashqi va ichki koagulyatsion yo'llarning faolligini normallashtirishni ko'rsatdi, tromblar hosil bo'lishi markeri shifoxona bosqichida D-dimer darajasining oshishi edi. 4 oydan keyin D-dimer kontsentratsiyasining me'yoriy ko'rsatgichlargacha pasayishi antikoagulyant va fibrinolitik qon tizimlarining tiklanishini aks ettiradi.

O'tkir faza oqsillari ferritin va C-reaktiv oqsil ham dinamikada tahlil qilindi. Shifoxonadan chiqqan paytda bemorlarda ferritin darajasi referent ko'rsatgichlarning yuqori chegarasidan 2,9 baravar ko'p edi- 440 ng/ml (286-607), C-reaktiv oqsil referent ko'rsatgichlarning yuqori chegarasida edi- 5 mg/l (2-14,5). 4 oydan keyin o'tkir fazadagi oqsillarning kamayishi kuzatildi: ferritin 3,2 baravar 139 ng/ml (86-237) gacha, C-reaktiv oqsil 1 mg / l gacha (0-5). Bu dinamika koronavirus infeksiyasi sabab bo'lgan yallig'lanish reaksiyasi belgilarining yo'qolganini ko'rsatadi.

**Xulosa:** Koronavirus infeksiyasidan keyin to'rt oylik tiklanish davri qonning fibrinolitik tizimining faolligi va yallig'lanish belgilari darajasining normallashtirishi bilan birga keladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Авдонина А.С., Марданлы С.Г. Лабораторные исследования в диагностике COVID-19 //Известия ГГТУ. Медицина, фармация. – 2020. – №. 4. – С. 32-38.
2. Бердиярова Ш.Ш. и др. ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 33-38.
3. Кожокина О.М., Созина Д.А. ЗНАЧЕНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ДИАГНОСТИКЕ COVID-19 //Научные открытия 2023: сборник материалов XL-ой международной очно-заочной научно-практической конференции, в 3 т., том 1, 17 ноября, 2023–Москва: Издательство НИЦ «Империя», 2023. –182с. – 2023. – С. 139.
4. Курбонова З.Ч. Патология системы гемостаза у больных коронавирусной инфекцией, клинико-лабораторная диагностика и совершенствование путей коррекции. – 2023.
5. Набиева Ф.С., Душанова Г.А., Бобокулов О.О. Значение иммуноферментного анализа в диагностике инфекционных заболеваний //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 4-1 (107). – С. 54-56.

#### REFERENCES:

1. Кулаков Ю. К. и др. Метод ПЦР в лабораторной диагностике бруцеллеза //Эпидемиология и вакцинопрофилактика. – 2010. – №. 2. – С. 29-33.

2. Ермолаева И. А. ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА БРУЦЕЛЛЕЗА //Редакционная коллегия. – 2022. – С. 54.
3. Фазылов В. Х. и др. Диагностика и лечение хронического бруцеллеза в реальной практике //Практическая медицина. – 2014. – №. 7 (83). – С. 75-79.
4. [ШШ Бердиярова, НА Юсупова. Особенности иммунометаболических нарушений иммунологической реактивности при гематогенных остеомиелитах.](#) Вестник науки и образования, 29-32.
6. [Клинико-лабораторная диагностика внебольничных пневмоний у детей ШШ Бердиярова, НА Юсупова, ХИ Ширинов](#) Вестник науки и образования, 80-83.
7. Ибрагимов Б.Ф., Ибрагимова Н.С. Роль гомоцистеина в патогенезе синдрома поликистозных яичников у женщин International scientific review, Boston, USA. January 22-23, 2020.
8. Душанова Г.А., Набиева Ф.С., Садинова М.Ж., Нурматова Д.М. Анализ взаимосвязей параметров иммунного гомеостаза с состоянием системы ПОЛ-АОС // Вестник науки и образования, 2021. № 2 (105). Часть 2.
9. BS Shukurullayevna, IL Kamolidinovna, KZ Nabijonovna. Differential diagnosis of alcoholic and viral hepatitis. World Bulletin of Public Health 21, 8-11.
10. Ибрагимова Н.С., Набиева Ф.С., Умарова С.С. Оценка значимости клинико-лабораторных и инструментальных методов исследования при диагностике эхинококкоза // International scientific review, Boston, USA. December 22-23, 2019.
11. Umarova S.S., Nabiyeva F.S., Ibragimova N.S. Early diagnostics of echinococcosis in children // European research: innovation in science, education and technology. London, United Kingdom. January 9-10. С. 88-90, 2020.
12. Isomadinova L. K., Kudratova Z. E. Clinical and laboratory characteristics of vomiting in pregnant women in early pregnancy //Doctor's herald journal. – 2023. – Т. 2. - С. 52-56.
13. Kudratova Z. E., & Shamsiddinova M. Sh. (2023). LABORATORY METHODS FOR DIAGNOSING UROGENITAL CHLAMYDIA. Open Access Repository, 10 (10), 5–7.
14. Kudratova Z. E. et al. CURRENT MODERN ETIOLOGY OF ANEMIA //Open Access Repository. – 2023. – Т. 10. – №. 10. – С. 1-4.
15. [Clinical and laboratory characteristics of chronic osteomyelitis in children](#) BS Sh, AY Sh, NA Yusupova, NK Murtazaeva
16. Sabirovna I. N., Shekhrozovna B. F. DIAGNOSTIC CRITERIA AND TREATMENT OF TYPE 2 DIABETES MELLITUS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 10. – С. 237-240.
17. Sabirovna I. N. et al. Dysfunctions of the Immune System and Their Role in the Development of Diseases //The Peerian Journal. – 2023. – Т. 23. – С. 49-52.

18. Yusupova N., Firdavs O. Energy drinks. The composition of energy drinks and the effect on the body of their individual components //Thematics Journal of Microbiology. – 2022. – T. 6. – №. 1.
19. Tursunov Feruz O’Ktam O’G’Li, Raximova Gulchiroy Olim Qizi, Isroilova Umidaxon, Turayeva Shaxnoza ASSESSMENT OF CARBOHYDRATE METABOLISM IN PATIENTS WITH DIABETES AND COVID-19 // ReFocus. 2022. №4.
20. Burkhanova D. S., Tursunov F. O., Musayeva F. THYMOMEGALY AND THE STATE OF HEALTH OF CHILDREN IN THE FIRST YEAR OF LIFE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 10. – C. 62-64.
21. Feruz O'ktam o'gli T., Mengdobilovich M. N. ANALYSIS OF GLYCEMIA AND GLUCOSURIA IN PATIENTS WITH DIABETES AND COVID-19 //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 177-181.